



O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI

M.Sh. Komilova

SamDAQI o'qituvchisi. Samarqand, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6425586>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-mart 2022

Ma'qullandi: 15-mart 2022

Chop etildi: 25-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

investisiya faoliyati,
investisiya fondi, loyiha,
subyekt, mexanizm,
mahalliy va xorijiy
investisiya, erkin iqtisodiy
zonalar, investitsiyaviy
faollik, qimmatli qog'ozlar.

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda investisiya faoliyatini amalga oshirishning hududiy xususiyatlariga oid masalalar yoritilgan. Respublikada amalga oshiriladigan investisiya faoliyatini samarali olib borishda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini shakllantirish, takomillashtirib borish, investitsiya kiritish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun istiqbolli loyiha takliflarini taqdim etish, sifatli loyihalarni ishlab chiqish va ijrosini tizimli ta'minlash, xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish, investorlar faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish:

Mamlakatimiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti barqarorligi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi investisiya siyosati bilan uzviy bog'langan. Respublikamiz hududlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy farqlanishlar va nomuvofiqlarni kamaytirishda investitsiyalarni jalb qilish o'ziga xos o'ringa ega. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish hududlarda mavjud barcha resurslardan foydalanishni oqilona amalga oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan takomillashtirishga zamin yaratadi

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tiborimizni qaratsak, xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan biridir.

Shuning uchun mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasini iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida ko'rib chiqish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish.¹ lozim.

Shuningdek, Prezidentimiz Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga

¹ Sh.M.Mirziyoyev. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.



erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investisiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz.

Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investisiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investisiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim"² [1], deb ta'kidlab, xorijiy investisiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi. Respublikada xom ashyo bazasini kengaytirish va uni qayta ishlashni chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyalarni keng jalb qilish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, shu asosda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish hamda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirishda tanlangan mavzuni dolzarbligini belgilaydi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

^{2 2} .O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr

Investitsiyalar, ularni faol jalb qilish, qulay investitsiya muhitini yaratish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri, xorijiy investisiyalar va ular ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, investisiyalarni hududlardagi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishdagi roli va ahamiyati kabi masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan K.Eklund[3], E.D.Dolan va D.S. Lindseylar[4], U.Sharp[5], L.Gitman, M.Djonk[6], K.Makkonell, S.Bryu[7], R.Samuelson, V.Nordxaus[8] investitsiya faoliyati turlari va ularni moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarning tasnifi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari, investitsiya faoliyati va investitsiya yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Shuningdek, respublikamizning yetakchi olimlari D.G'ozibekov[9], B.A.Abdukarimov, A.N. Jabriyev, M.K. Pardayevl[10], D. Tojiboyeva[11], va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.



Investitsiya tushunchasini yoritishga qaratilgan yondashuvlar

Mualliflar	Ta'rif	Manbasi
Vikipediya, ochiq ensiklopediya	Investitsiya - (<u>nemischa</u> "Investition", <u>lotincha</u> "Investio") so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajatlar yig'indisi deb talqin etilgan. Investitsiya - foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, xuquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklardir. Ko'pchilik iqtisodiyotni tushunmaydiganlar Investitsiyani qarz deb tushunadi. Davlat qarzi hisoblab chiqilganda Investitsiyalar hisobga olinmaydi.[2]	https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya
K. Eklund	Investitsiyalar-bu kelajakda ko'proq iste'mol qilish sharoitiga ega bo'lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste'mol buyumlari bo'lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir.[3]	Клас Эклунд. Эффективная экономика: Шведская модель. М. "Экономика" 1991, 96б.
E.D. Dolan va D.S. Lindseylar	Investitsiyaning mazmuni "shakllanaётgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining o'sishi, odamlar amal qiladigan ishlab chiqarish resurslari taklifini yuksalishida" dir.[4]	Долан Э.Дж., Линдсей Д.Е. Микроэкономика. – Спб.,1994.-448 с.
U. Sharp	Investitsiya-istiqbolda yanada ko'proq miqdordagi mablag'olish uchun ma'lum miqdordagi pul bilan bugun ajralishdir.[5]	http://el.tfi.uz/images/Karimqulov BMI uz cd153.pdf
L.Gitman, M.Djonk	Investitsiya-bu kapitalni shunday joylashtirishki, bunda uning qiymati saqlanib qolishi, o'sib borishi va ijobiy miqdordagi daromadni keltirishi lozim.[6]	arxiv.uz
K.Makkonell, S.Bryu	Investitsiya-bu modddiy zaxiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga xarajatlardir.[7]	arxiv.uz
R.Samuelson.	Investitsiya iqtisodiy holat bo'lib, kelajakda	arxiv.uz



V.Nordxaus	ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida bugungin iste;mol xarajatlaridan voz kechish demakdir. Unda vositalar moddiy yoki nomoddiy kapitaliga yo'naltiriladi. Moliyachilar fikriga ko'ra, investitsiya qimmatli qog'ozlarni xarid qilishni anglatadi.[8]	
D.G'ozibekov	Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag' olish, ularni asosli holda safarbar qilish, risklar darajasini hisobga olgan holda capital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi.[9]	arxiv.uz
B.A.Abdukarimov, A.N. Jabriyev, M.K. Pardayevlar	“investisiya – bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag' qo'yish. U pul mab-lag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklida olib boriladi va ko'chma, ko'ch-ma bo'lmagan mol-mulkka, intellektual mulkka, ne'matlarga bo'lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo'yiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi.[10]	Abdulkarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti (darslik).-T.: Fan, 2005. 241b.
Д. Тожибоева	Investisiya deganda kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qayta ta'mirlash, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayirlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi.[11]	Tojiboyev D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchi kitob).- T.: Sharq, 2003-79b.
O'zR qonuni 2019-yilda qabul qilingan qonuni 3-modda	investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar.[13]	https://lex.uz/docs/-4664142

Yuqorida keltirilgan, xorijiy va mamlakatimiz olimlarining nazariy izlanish natijalaridan kelib chiqqan holda investisiya mohiyatini yoritib berish bo'yicha quyidagi xulosaga keldik: investisiya mohiyatining ilmiy asosi resursli va xarajatli yondashuvlar ularning

dastlabki tashkil etilishi mablag'lardan foydalanishni talab etadi, foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan



intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlardir.

Bizning fikrimizcha, investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi Izlanishlarimiz jarayonida O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini ma'lumotlarni guruhlash yo'li bilan statistik qayta ishlash usuli, tahlil qilish, ekspert baholash, tizimli yondashuv, taqqoslash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, 2021-2023 yillar uchun qiymati 109 trillion so'mdan ziyod 1 ming 277 ta investitsiya loyihasi shakllantirilgan. Shundan qariyb 4,9 milliard dollari xorijiy investitsiya va kreditlarga to'g'ri keladi.³

Respublikada xom ashyo bazasini kengaytirish va uni qayta ishlashni chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyalarni keng jalb qilish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, shu asosda

yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish hamda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarni innovasion salohiyatini baholashda esa hududni innovasion salohiyati bilan birga uning iqtisodiy o'sishi, davlatning hududni rivojlantirishda olib borayotgan siyosatini va hududda investitsiyani jalb etishning muhim yo'llarini belgilab beruvchi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (1-jadval), viloyatlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2-jadval), viloyatlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (o'sish sur'ati, % da) (3-jadval), aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (4-jadval) quyidagi ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda.

³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>

(1-jadval)

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, (mlrd.so'm)

No	Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021
1	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	60719,2	107333,0	189924,3	202000,0	244 962,6
	shu jumladan:					
2	Markazlashgan	14975,0	34448,4	50686,8	39310,2	93500,5
3	Markazlashmagan	45744,2	72884,6	7752,4	162689,9	151500,5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2017 yilda O'zbekistonda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 60719,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 244962,6 mlrd.so'm o'zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 23,1 mlrd. AQSH doll. o'zlashtirilgan bo'lib, 2020-yilga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish

manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2020- yildagi ulushiga nibatan 1,6 % punktga kamayib, 18,3 % ni yoki 44,8 trln. so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 202000,0 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 81,7 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi.

(1-jadval)

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, (mlrd.so'm)



Nº	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
1	O'zbekiston Respublikasi	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	244962,6
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2822,0	6757,8	8750,6	7089,8	7879,1
	<i>viloyatlar:</i>					
3	Andijon	2986,0	4711,9	7452,1	9622,6	12143,7
4	Buxoro	11613,4	9610,9	10366,6	12183,9	18995,6
5	Jizzax	1788,2	3606,3	7900,9	12545,4	13224,4
6	Qashqadaryo	11175,3	16518,5	24462,5	20557,6	16225,1
7	Navoiy	3977,9	10579,5	17646,3	15688,4	16309,1
8	Namangan	3586,7	8158,1	12084,9	12007,2	13302,4
9	Samarqand	4384,2	7061,4	10266,7	14656,4	17722,8
10	Surxondaryo	3551,0	7240,6	11835,1	10068,2	11326,5
11	Sirdaryo	1628,0	2699,3	5869,1	7191,9	8708,0
12	Toshkent	5938,4	11226,9	20353,9	21148,6	27822,4
13	Farg'ona	2954,5	5539,1	8685,4	11040,0	12920,6
14	Xorazm	2175,9	3013,8	5032,0	5391,8	8580,3
15	Toshkent sh.	13573,7	26435,7	42458,1	50371,3	57611,3

(3-jadval)

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (o'sish sur'ati, % da)



№	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
1	O'zbekiston Respublikasi	119,4	129,9	138,1	95,6	105,2
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	60,4	169,9	100,3	69,9	102,1
	<i>viloyatlar:</i>					
3	Andijon	114,3	113,7	129,0	110,6	115,3
4	Buxoro	154,7	60,6	95,9	104,7	136,4
5	Jizzax	108,2	158,1	194,9	147,4	104,0
6	Qashqadaryo	129,7	112,4	131,2	76,5	72,7
7	Navoiy	107,4	188,0	144,3	77,1	93,4
8	Namangan	110,2	178,1	131,1	88,0	102,9
9	Samarqand	105,7	131,4	134,5	128,8	112,0
10	Surxondaryo	148,4	164,2	144,0	77,4	103,2
11	Sirdaryo	115,4	131,0	186,0	111,2	116,4
12	Toshkent	118,4	139,9	158,5	92,2	119,1
13	Farg'ona	98,6	145,9	132,0	113,5	108,2
14	Xorazm	128,5	111,7	150,7	92,7	144,2
15	Toshkent sh.	121,4	138,2	145,8	108,6	104,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2020-yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 144,2 % ga o'sib, Xorazm viloyatida kuzatildi. Bu asosan zamonaviy issiqxonalar va turar joylar qurilishi bilan bog'liq. Shuningdek, Buxoro viloyatida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, 2020-yilga nisbatan 136,4 % ni tashkil qildi. Bunday natijani Qandim guruhi konlarini gazni qayta ishlash zavodi qurilishi, Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish va geologiya-qidiruv ishlarini olib borish dasturi doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin. Toshkent viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2020-yilga nisbatan 119,1 % ni tashkil etishi, "Yoshlik I" konini o'zlashtirish bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq. Respublikada asosiy kapitalga o'zlashtirilgan

investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulush Toshkent shahri – 23,5 %, Toshkent viloyati – 11,4 % va Buxoro viloyatida – 7,8 % kuzatildi.

Investitsion faollikning eng past o'sish sur'atlari Qashqadaryo – 72,7 % (investitsiya hajmi 16 225,1 mlrd. so'm) va Navoiy – 93,4 % (16 309,1 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. 2021-yilda jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 63,2 % i respublikaning olti hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 23,5 %, Toshkent viloyatida – 11,4 %, Buxoro viloyati – 7,8 %, Samarqand viloyati – 7,2 %,

2021- yilda jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 63,2 % i respublikaning olti hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 23,5 %, Toshkent viloyatida – 11,4 %, Buxoro viloyati – 7,8 %, Samarqand viloyati

– 7,2 %, Navoiy – 6,7 % va Qashqadaryo o'zlashtirildi.
viloyatida – 6,6 % dan investitsiyalar

(4-jadval)

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	2227,8	3769,6	5834,6	6140,3	7015,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1542,2	3641,1	4644,4	3710,0	4069,6
<i>viloyatlar:</i>					
Andijon	999,6	1550,3	2406,0	3047,2	3770,4
Buxoro	6254,2	5112,4	5429,3	6295,0	9681,7
Jizzax	1361,9	2693,9	5778,9	8984,7	9267,9
Qashqadaryo	3583,4	5193,4	7534,6	6214,7	4811,9
Navoiy	4185,4	10892,1	17855,2	15604,2	15931,5
Namangan	1340,3	2992,5	4344,1	4229,2	4588,1
Samarqand	1189,4	1878,3	2674,9	3746,0	4442,4
Surxondaryo	1427,1	2848,3	4552,8	3792,2	4176,4
Sirdaryo	2011,1	3280,2	7002,9	8425,4	10011,5
Toshkent	2087,2	3898,4	6970,0	7169,0	9538,7
Farg'ona	822,4	1516,8	2336,2	2916,0	3348,9
Xorazm	1215,1	1655,6	2718,4	2868,2	4495,4
Toshkent sh.	5552,7	10627,8	16710,5	19065,6	20433,9

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki, 2021-yilda aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida – 20 433,9 ming so'm (yoki 2020-yilga nisbatan taqqoslaganda – 97,4 %), (yoki 2017-yilga nisbatan qariyb 4 baravar ko'p), Navoiy viloyatida – 15 931,5 ming so'm (yoki 91,7 %), (yoki 2017-yilga nisbatan qariyb 4 baravar ko'p), Sirdaryo viloyatida – 10 011,5 ming so'm (yoki 114,3 %), (yoki 2017-yilga nisbatan qariyb 5 baravar

ko'p), Buxoro viloyatida – 9681,7 ming so'm (yoki 134,6 %), (yoki 2017-yilga nisbatan qariyb 1,5 baravar ko'p), Toshkent viloyatida – 9 538,7 ming so'm (yoki 120,4 %) va Qashqadaryo viloyatida 4 811,9 ming so'm miqdorida (yoki 71,4 %) qayd etildi, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida, Navoiyda 15931,5 , Sirdaryoda 10011,5 aholi jon boshiga t (37,1) Ammo qolgan hududlarda bu ko'rsatkichlar deyarli o'rtacha past ko'rsatkichda turibdi. Bu aynan shu hududlarda ham asosiy



kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdorini oshirish kerakligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda respublikada investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirishni lozim deb hisoblaymiz:

Birinchidan, bank-kredit tizimining takomillashtirish.

Ikkinchidan, investisiya kiritayotgan investorlarning huquqlarining himoyasini yanada kuchaytirish.

Uchinchidan, byurokratik to'siqlarni olib tashlash

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida investitsiya salohiyatini oshirish uchun viloyat hududlarining har biriga investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya kiritish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun istiqbolli loyiha takliflarini taqdim etish, sifatli loyihalarni ishlab chiqish va ijrosini tizimli ta'minlash, xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish, investorlar faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, investitsiyalarni jalb qilishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>
3. Клас Эклунд. Эффективная экономика: Шведская модель. М. "Экономика" 1991, 96б.
4. Долан Э.Дж., Линдсей Д.Е. Микроэкономика. –Спб.,1994.-448 с.
5. <http://el.tfi.uz/images/Karimqulov BMI uz cd153.pdf>
6. arxiv.uz
7. arxiv.uz
8. arxiv.uz
9. arxiv.uz
10. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyati (darslik). -T.: Fan, 2005. 241b.
11. Tojiboyev D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchi kitob). – T.: Sharq, 2003-79b.
12. <https://lex.uz/ru/docs/-29905>
13. <https://lex.uz/docs/-4664142>